

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSINING O'QITISH MAQSADI VA  
VAZIFASI****Tulyaganova Madina****Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
2-kurs talabasi****M.A. Hamrayev****Ilmiy Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14523472>**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darsining o'qitish maqsadi va vazifasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** Savodxonlik, badiiy asar, to'g'ri o'qish.

**АННОТАЦИЯ:** В Данной статье дана информация о цели и задаче проведения урока чтения в начальных классах.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВО:** Грамотность, художественное творчество, правильное чтение.

**ABSTRACT:** This article provides information about the education goals and objectives of reading lessons in elementary grades.

**KEY WORDS:** Literacy, artistic, word, correct reading.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifasiga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zamirida savodxonlik va axloqiy-ta'lim tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmentlar ta'limini o'qitish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy axloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janri rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O'qish kitobidagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi. O'quvchi matni to'g'ri va tez, tushunib o'qish mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchining Davlat ta'lim standarti talablari bo'yicha o'zlashtirishlariko'zda tutilgan o'quv-bilim ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashga yo'l ochadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligi qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlari turtki beradi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallanganidan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy ommabop matnlar yuzasidanolib boriladi. O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik

hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim ba tarbiya beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'r, masallar, hikoyalar, afsonalar maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi. To'g'ri o'qish bu xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush -harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushurib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflarni o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida idrok etish, talaffuz va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo' qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limda odamga xos tuyg'u, kechinma, quvonch va iztiroblar adabiy qahramonlar timsoli misolida o'rganib tahlil qilinadi. O'quvchilar asar qahramonlari bilan birga xursand bo'lishadi, yog'lashadi, xulosa chiqarishadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchining butun e'tibori asar qahramonlari timsolida insonni o'rganishga qaratiladi. Bugungi adabiyot o'qitish kesimida, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchida shaxslik sifatlarini tarbiyalashga, uyg'oq ruhiyat kishisini shakllantirishga, shu bilan birga san'at asarlarining har qanday turini tushunish, uni tahlil qila bilish hamda o'zlashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Adabiyot darslarida, birinchi navbatda, adabiy asarlarning o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir etishiga e'tibor qaratiladi. Asar ustida ishlagan o'quvchi undan o'z oldida turgan ijtimoiy, axloqiy, estetik savollarga javob topishi kerak.

Boshlang'ich adabiy ta'limni maqsadga muvofiq tashkil etishda o'quvchining ertak qahramonlari o'rniga bolalarning o'zlari, ota-onalari va qarindoshlari nomini aytib qo'yib berishlari ham o'quvchilarda shaxslik belgilarining paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertak qahramonlari o'rtasida ajdar bialn olishish, dushmanlarga qarshi kurashish, o'g'rilarni yengish, zaiflarni himoya qilish uning ruhiyatiga o'ziga xos hissini soladi. Ichidagi tushunarsiz va sirli qo'rquvni yengishga ko'maklashadi. Faqat hammasi real bo'lishi va jiddiy ifodalanishi kerak. Voqealar markazida esa real bola bo'lishi kerak. Shunda o'quvchilarning ayrimlari o'zlarini hayvonlardan qo'rqmagandek his qiladilar. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarning hayotdagi o'z o'rnini topishga ko'maklashgan bo'ladi. O'zini voqealar markazida tasavvur qilish o'quvchiga o'zligini anglash uchun yordam beradi. Faqat o'qituvchi bu o'yinga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, har bir ertakka sinfdagi bir bolani qaxramon qilib kiritishi va ertakning matnini oldindan tayyorlab qo'yishi kerak bo'ladi.

O'qish kitobi darsliklaridan o'rin olgan badiiy matnlarni o'rganishda qo'llaniladigan suhbat metodi nafaqat o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan, balki o'quvchilarning o'zaro dialogik hamkorligini ham nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati o'qituvchi tomonidan o'quv materialidagi yetakchi, o'quvchi ko'nglidan o'tsa u yerda o'zidan ijobiy iz qoldirishi mumkin bo'lgan qarashlarni qiziqarli tarzda savol yoki topshiriqqa aylantira bilish, o'quvchilarni javob topish yo'llarini izlashga, bilim va ma'naviy sifatlar, xulosa, qonuniyat va qoidalarning bolalar tomonidan qayta kashf etishiga tarbiyalanuvchilarini yaratish lazzatini tuyishga jalb qilishdan iboratdir.

**References:**

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili o'qitish metodikasi. 2009.
2. Q. Husanboyeva va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik.